

ZAMAXSHARIY FIQHIY QARASHLARINING XUSUSIYATLARI

S.S.Saidjalolov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14160332>

Annotatsiya. Mahmud Zamaxshariy Movarounnahrda chiqqan buyuk mufasssir, mutakallim, faqihdir. Movarounnahrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy ahvol tanazzulga yuz tutganida, Mahmud Zamaxshariy ilm-fanni tiklash va tiklashga xizmat qildi, xususan, Qur'on va fiqhda fidoyi olimlar bilan suhbatlashdi. Uning o'nta asari bugun ma'lum bo'lib, bu asarlar ustidagi ilmiy izlanishlar to'xtovsiz davom etmoqda. Bu maqolalar asosan "Ruus al-masail" qo'lyozmalaridagi Qur'on oyatlaridan foydalanishga yordamchi manba bo'ladi.

Kalit so'zlar: No'mon ibn Sobit, Mahmud Zamaxshariy, ibn Xalikon, Xoji Xalifa, Muhammad ibn Idris ash-Shofeiy, Ruus al-masail, Toj at-tarajim, A'lom.

FEATURES OF ZAMAKHSHARĪS JURISPRUDENTIAL VIEWS

S.S. Saidjalolov

Docent of the International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in History (PhD)

Abstract. Maḥmūd Zamakhsharī is a great mufasssir, mutakallim, jurist who came from Movarounnahr. When the scientific, cultural and economic situation in Mā Warā' al-Nahr was in decline, Maḥmūd Zamakhsharī served to revive and restore science, specially in Qur'ān and fiqh studies with selfless scientists. Ten of his works are known today, and scientific researches on these works continue without stopping. This articles mainly contributed to use Qur'ānic verses in Ru'ūs al-masā'il manuscript.

Key words: Nu'mān ibn Thābit, Maḥmūd Zamakhsharī, ibn Khallikān, Ḥājji Khalīfah, Muḥammad ibn Idrīs ash-Shāfi'ī, Ru'ūs al-masā'il, Tāj al-tarājim, Qur'ān.

Zamaxshariy yashagan davr fiqh ilmi shakllanishining so'nggi bosqichini o'zida namoyon etadi. Unda turli fiqhiy maktablar qaror topgan va to'rtinchi hijriy asr fiqh ilmi shakllanishida taqlid va mazhablarga ergashishning boshlanish davrini o'z ichiga oladi. Islom huquqida yangi bosqich yuzaga keldi, bu bosqich "Tahzib va tanqih" deb atalib, u fiqhiy masalalarni qayta ko'rib chiqish va bir masaladagi fatvolardan haqqoniylarini tanlab olish va shu orqali fiqh sohasini yanada yaxshilashni anglatar edi. Shuningdek, mazhab ulamolari qarashlarini tahrir etish va yo'nalishlarini aniqlash, dalillarini izlash, fatvolarni sohalarga bo'lish va ularning orasidan tegishlilarini ajratib olishni ham bildirar edi¹.

Bu asrda fiqhiy mazhablar ta'limotini sharhlagan, rivojlantirgan va taraqqiyotini yangi bosqichga ko'targan bir qator faqihlar faoliyat ko'rsatdilar. Keyingi avlodlar mazkur faqihlar merosi, fikrlari va mazhab fatvolari borasidagi qarashlaridan ta'sirlandilar. Masalan, hanafiy mazhabi faqihlarining uchinchi guruhi, ya'ni "Mazhab sohibi – Imom A'zamdin rivoyat qilinmagan masalalarda fatvo berish salohiyatiga ega mujtahidlar guruhi"ga kiruvchi - Imom Saraxsiy, shuningdek, faqihlarning beshinchi guruhi hisoblanmish "Tarjih sohiblari", ya'ni fatvolarning qaysi biri boshqasidan ko'ra ustunroq, haqiqatga yaqinroq ekanini aniqlay

¹ Abu Zahra. Tarix al-mazahib al-fiqhiya. –Qohira: Dar al-fikr al-arabiy, 1983.-B.17.

oladigan muftahidlar guruhiga mansub bo'lgan - Imom Quduriy bilan Zamaxshariy zamondosh bo'lgan². Bu faqihlarning mazhab borasidagi qarashlariga hozirgacha suyanadilar va asoslanadilar. Zero, mazkur davr hanafiy mazhabi taraqqiyotida rivojlanish, atrofga tarqalish va olam bo'ylab yoyilish bosqichi bo'ldi.

Shuningdek, bu asrda shofei mazhabi haqida ham yuqoridagiga o'xshash fikrlarni bildirish mumkin. Zamaxshariy hozirgacha qarashlari mo'tabar bo'lgan va asos sifatida qabul qilinadigan, hali-hanuz mazhab oid fatvolarni anig'ini ajratib olishda fikrlari e'timodga loyiq bo'lgan shofei mazhabi faqihlari bilan hamasr bo'ldi. Masalan, "Al-Muhazzib" kitobi sohibi Imom Sheroziy va "Al-Vasit" asari sohibi Imom G'azzoliy kabilarni zikr qilish mumkin³.

Bu asrda shofei mazhabi o'z taraqqiyoti iroqliklar va xurosonliklar qarashlarini jamlashga bo'lgan faol harakat bosqichini boshidan o'tkazmoqda edi. Buning oqibatida mazhab fatvolari ikki buyuk imom Rofi'iy va Navaviy tomonidan tahrir etildi.

Islom huquqi o'z takomili yo'lida bir qancha bosqichlardan o'tdi. Bu bosqichlarni ijti hod darajalari orqali anglash mumkin. "Ijti hod" so'zi lug'atda biror maqsadga erishish yo'lida bor imkoniyatni sarflash ma'nosini bildiradi. Ijti hodning istilohiy ma'nosi faqih o'zining bor salohiyatini Qur'on va hadisda hukmi aniq- ravshan bayon qilinmagan masalaning yechimini topishga sarflashini anglatadi. Masalan, Qur'oni karimda savdo-sotiq haqida sanoqli oyat kelgan. Bu borada naql qilingan hadislarning soni ham ko'p emas. Biroq oldi-sotdi masalalarga bag'ishlangan alohida kitoblar tasnif etilgan. Yuzaga kelgan minglab savollarga javob berilgan. Yuzaga kelgan savollarga olimlarning ijti hodi orqali javob berilgan⁴.

Ijti hod qiluvchi olimga muftahid deyiladi. Har bir olim ham muftahid bo'lavermaydi. Chunki muftahid ilmning kamida 5 ta sohasini mukammal bilishi zarur bo'ladi:

1. Qur'oni karim oyatlarini, ularning ma'nolari, nozil bo'lish sabablarini eng nozik jihatlarigacha yoddan bilishi.
2. Hadisi shariflarni, ularning ma'no-murodlari hamda roviylari bilan yoddan bilishi.
3. Sahoba va tobe'inlar hamda o'zidan oldin o'tgan muftahid olimlar fatvolarini yaxshi bilishi.
4. Qiyos ilmini yaxshi bilishi.
5. Arab tilini mukammal bilishi.

Mazkur talablar muftahidlikning eng quyi martabasi uchun qo'yilgan. Ba'zi manbalarda muftahid darajasiga yetish uchun ilmning o'n ikki xil sohasini bilish zarur deyilgan. Bunda nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham nazarda tutilgan. Masalan, mashhur "Hidoya" asarining tahorat kitobida inson burnidan keladigan suyuqlik ikki turga bo'linishi, birinchi turi miyadan kelishi, ikkinchi turi ko'krakdan kelishi, bularning qaysi biri tahoratni ketkazishi yoki ketkazmasligi to'g'risida bahs boradi⁵. Demak, mazkur masalada munozara qilgan faqihlar inson tanasida kechadigan o'zgarishlardan, boshqacharoq ifoda etsak, bugungi kundagi anatomiya, biologiya kabi fan sohalaridan xabardor bo'lganlar. Shuningdek, qiblani

² Ibn Obidiyn. Hashiya ibn Obidiyn. -Riyoz: Dar alam al-kutub, 2003. J.1.-B: 37.

³ Mahmud Zamaxshariy. Ruus al-masail al-xilafiya bayna al-hanafiya vash-shafiya. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Abdulloh Nazir Ahmad. -Bayrut: Dar al-bashair al-islamiya, 1987. -B.25.

⁴ S.Saidjalolov. Dinlardagi oqimlar va sektalar. -T: Complex print, 2019. -B.44.

⁵ Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. Sharh bidoyatil muftadi. Ibodot qismi. Tarjima va izohlar muallifi A.Qambarov, A.Ikromjonov, I.Bekmirzayev. -T: Hilol-nashr, 2020. J.1. B.38.

topish, oy kunlarini aniqlash uchun astronomiyani, meros masalalarini hal etish uchun matematikani bilish kerak bo'lgan. Al-Xorazmiy Qur'ondagi merosga oid masalalarni yechish yuzasidan hisob-kitob olib borib, algoritmgaga asos solgani haqidagi ma'lumot mashhurdir. Mutaxassislar buyuk allomaning nafaqat matematika kabi dunyoviy ilmlar bilimdoni, balki fikr ilmini yaxshi biluvchi hanafiy mazhab faqih ekanini e'tirof etganlar⁶.



⁶ S.Saidjalolov. Islomdagi yo'nalishlar va mazhablar. –T. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.-B.72.